XORAZM VILOYATI BOG‘OT TUMANI HOKIMINING QARORI

Bog‘ot shaharchasi, O‘zbekiston ko‘chasi, 18-uy

2022 - yil 21 - fevral 121-12-170-Q/22 Bog‘ot tuman hokimligi

2022 yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to’g’risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘RQ 642-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan, tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Bog‘ot tumanida 2022-yil uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish bo‘yicha korxona, tashkilot va muassasalar ro‘yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ushbu qarorning 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonidan kelib chiqqan holda
100 nafar kishini tashkil etadigan, ish o‘rni 100 % miqdorda shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun 13 ta ish o‘rni;

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, “Mehribonlik” uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 78 ta ish o‘rni;

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 3 ta ish o‘rni;

nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 3 ta ish o‘rni;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 1 ta ish o‘rni;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun 2 ta ish oʻrni;

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish oʻrinlari xodimlar tomonidan oʻzlarining mehnat majburiyatlarini toʻsiqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya va gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq boʻlishi ta’minlansin, shu jumladan:

oʻn toʻrt yoshga toʻlmagan bolalari, nogironligi boʻlgan bolalari bor yolgʻiz otaga yoki onaga, shuningdek koʻp bolali oilalarning ota-onalari uchun — bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qoʻshib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega boʻlgan ish oʻrinlari;

umumiy oʻrta va oʻrta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega boʻlgan yoshlar shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari boʻyicha ta’lim olgan hamda “Mehribonlik” uylari bitiruvchilari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga hamda mutaxassisligiga muvofiq boʻlgan ish oʻrinlari;

muddatli harbiy xizmatdan boʻshatilganlar uchun ularning professional tayyorgarligiga mos boʻlgan ish oʻrinlari;

nogironligi boʻlgan shaxslar uchun — mehnat sharoitlari boʻyicha attestatsiyadan oʻtkazilgan va xodimga sogʻligʻining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi koʻrsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish oʻrinlari.

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun — ularning kasbiy tayyorgarligiga mos boʻlgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga koʻra oʻziga nisbatan tibbiy yoʻsindagi majburlov choralari qoʻllanilgan shaxslar uchun - ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari;

odam savdosi qurbonlari uchun — ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan ish oʻrinlari xarakterli talablarga muvofiq boʻlgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish oʻrinlari tashkil qilinsin.

4. Tashkilotlar rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarga koʻrsatilgan ish oʻrinlari tashkil etilishini ta’minlasinlar.

5. Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida nizomni tasdiqlash haqida”gi (Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 31-mayda roʻyxatga olingan, roʻyxat raqami 3163) buyrugʻiga asosan subsidiya ajratib berish tartibi boʻyicha ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga — har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq toʻlash belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Ushbu qarorning 2-ilovasida koʻrsatilgan korxona, tashkilot va muassasalarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilingan kasb va lavozimlar tashkil qilinsin.

7 Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha mazkur qaror ijrosini bajarmagan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning mansabdor shaxslariga O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga ko‘ra ma’muriy javobgarlik belgilanadi.

8. Bog‘ot tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi besh kun muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida ko‘rsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning rahbarlari e’tiboriga yetkazsin.

9. Bog‘ot tumani hokimining 2020-yil 28-sentabrdagi 2099-Q-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Tuman hokimligi yuristkonsulti M.Bobojonov mazkur qarorni tuman hokimligining hokimiyat.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirsin.

11. Mazkur qaror pasmiy manbaalarda e’lon qilinsin. Ushbu qaror e’lon qilingan kundan etiboran kuchga kirishi belgilansin.

12. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Qurbonov, tuman Aholi bandligiga ko‘maklashish markazi direktori D.Yuldashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Ш.Яхшибаев**

Боғот туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
121-12-170-Q/22-сон қарорига
1-илова

2022 yilda Bog‘ot tumani bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari to‘g‘risida

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona tashkilotlar ro‘yxati (korxona va tashkilotlar nomi)	Shtat javdvali bo‘yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo‘yish taklif etilayotgan ish o‘rinlari soni	shu jumladan:							
				14 yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	odam savdosidan jabrlanganlar uchun band qilingan ish o‘rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun ish o‘rinlari soni
1	Bog‘ot Don AJ	160	3	1		1	1				
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	1615	12	1	9		1		1		
3	Davlat sanitariya epidemialogiya osoyishtalik markazi	85	1		1						
4	"Great Cotton Export" MCHJ	200	15	5	10						
5	"Xorazm тех" MCHJ	565	20	5	15						
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	191	6	1		2	1	1	1		
7	1-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	124	1		1						
8	2-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	1		1						
9	3-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	111	1		1						
10	4-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	1		1						
11	5-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	1		1						
12	6-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	92	1		1						
13	7-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	1		1						
14	8-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	84	1		1						
15	9-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	66	1		1						
16	10-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	95	1		1						
17	11-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	75	1		1						
18	12-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	103	1		1						
19	13-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	110	1		1						
20	14-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	89	1		1						
21	15-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	1		1						
22	17-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	59	1		1						
23	18-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	73	1		1						
24	19-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	69	1		1						
25	20-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	54	1		1						
26	21-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	92	1		1						

27	22-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	52	1		1						
28	23-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	1		1						
29	24-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	121	1		1						
30	25-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	58	1		1						
31	26-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	87	1		1						
32	27-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	88	1		1						
33	28-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	1		1						
34	29-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	81	1		1						
35	30-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	83	1		1						
36	31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	101	1		1						
37	32-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	60	1		1						
38	33-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	1		1						
39	34-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	72	1		1						
40	35-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	1		1						
41	36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	63	1		1						
42	38-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	65	1		1						
43	43-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	55	1		1						
44	46-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	41	1		1						
45	48-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	47	1		1						
46	49-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	62	1		1						
47	AFCHO‘ va CHTCHO‘IMI	71	1		1						
48	2-son AFCHO‘IMI	53	1		1						
49	3-son AFCHO‘IMI	61	1		1						
	Jami:	6006	100	13	78	3	3	1	2	0	0

Боғот туман ҳокимининг
2022 йил 21 февралдаги
121-12-170-Q/22-сон қарорига
2-илова

2022 yilda Bog'ot tumani bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlari to'g'risida

№	Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona tashkilotlar ro'yxati (korxona va tashkilotlar nomi)	Shtat javdvali bo'yicha xodimlarning umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo'yish taklif etilayotgan ish o'rinlari soni	Kasblar va lavozimlar nomi
1	Bog'ot Don AJ	160	3	Ishchi
2	Tuman tibbiyot birlashmasi	1615	12	Vrach,xamshira,ishchi
3	Davlat sanitariya epidemialogiya osoyishtalik markazi	85	1	Vrach,xamshira
4	"Great Cotton Export" MCHJ	200	15	Ishchi
5	"Xorazm tex" MCHJ	565	20	Ishchi
6	Obodonlashtirish boshqarmasi	191	6	Ishchi
7	1-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	124	1	O'qituvchi
8	2-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1	O'qituvchi
9	3-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	111	1	O'qituvchi
10	4-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	1	O'qituvchi
11	5-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1	O'qituvchi
12	6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	92	1	O'qituvchi
13	7-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1	O'qituvchi
14	8-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	84	1	O'qituvchi
15	9-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	1	O'qituvchi
16	10-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	95	1	O'qituvchi
17	11-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	1	O'qituvchi
18	12-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	103	1	O'qituvchi
19	13-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	110	1	O'qituvchi
20	14-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	89	1	O'qituvchi
21	15-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	1	O'qituvchi
22	17-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	59	1	O'qituvchi
23	18-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	73	1	O'qituvchi
24	19-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	69	1	O'qituvchi
25	20-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	54	1	O'qituvchi
26	21-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	92	1	O'qituvchi
27	22-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	1	O'qituvchi
28	23-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1	O'qituvchi
29	24-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	121	1	O'qituvchi
30	25-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	58	1	O'qituvchi
31	26-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	87	1	O'qituvchi
32	27-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	88	1	O'qituvchi
33	28-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1	O'qituvchi
34	29-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	81	1	O'qituvchi
35	30-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	83	1	O'qituvchi
36	31-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	101	1	O'qituvchi
37	32-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	60	1	O'qituvchi
38	33-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1	O'qituvchi
39	34-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	1	O'qituvchi
40	35-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	1	O'qituvchi
41	36-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	63	1	O'qituvchi
42	38-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	65	1	O'qituvchi
43	43-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	55	1	O'qituvchi
44	46-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	41	1	O'qituvchi
45	48-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	1	O'qituvchi
46	49-son umumiy o'rta ta'lim maktabi	62	1	O'qituvchi
47	AFCHO' va CHTCHO'IMI	71	1	O'qituvchi
48	2-son AFCHO'IMI	53	1	O'qituvchi
49	3-son AFCHO'IMI	61	1	O'qituvchi
	Jami:	6006	100	